



YEVROPA MANBALARIDA MARKAZIY OSIYO XALQLARINING NOMODDIY MADANIY MEROSI VA O'LVKANING ETNOGRAFIK TAVSIFI

Qosimjonova Nodirabegim Farxodjon qizi

Farg'ona davlat universiteti

Tarix fakulteti 3-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8162135>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-July 2023 yil

Ma'qullandi: 15-July 2023 yil

Nashr qilindi: 19-July 2023 yil

KEY WORDS

Diplomatik munosabatlar,
savdo yo'li, sanoat
mahsulotlari, urf-odatlar,
Etnologik materiallar, o'zbek
xalqi etnogenezi.

ABSTRACT

Ushbu maqolada Markaziy Osiyo xalqlarining Nomoddiy madaniy merosi, jumladan qadriyatlari, marosim, bayram va urf-odatlar hamda etnografiyasi va uning Yevropa manbalaridagi tavsifi xususida so'z boradi. Markaziy Osiyo xalqlari etnografiyasiga oid ilmiy ahamiyatga ega materiallar to'plash davri keng man'oda XIX asrdan boshlandi. Ushbu davrdagi ko'pgina yirik ekspeditsiyalarning asosiy bazasi hisoblangan Orenburg shahri bu sohada muhim rol o'ynagan edi. XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asrning boshlarida o'zbeklar va Markaziy Osiyoning boshqa xalqlarini etnologik jihatdan o'rganishda muhim qadamlar tashlangan edi. Mustamlakachilik siyosatiga amal qilib kelgan fanning tor doiradagi ta'limoti va cheklangan imkoniyatlariga qaramay, o'sha davrdayoq Turkiston xalqlari tarixi va etnografiyasiga oid boy ma'lumotlar keyingi tadqiqotlar uchun muhim fundament vazifasini bajargan edi.

Tarixdan ma'lumki, XVI-XVII asrlarda Markaziy Osiyo hududida Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklari tashkil topganidan keyin Rus davlati bilan muntazam ravishda savdo hamda diplomatik munosabatlar o'rnatila boshlandi. XVI asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyodan Rossiyaga sakkiz marta elchilar yuborilgan bo'lsa, XVII asrda Xiva xonligidan 12 marta, Buxorodan esa 13 marta elchilar jo'natilgan. Bunga javoban, Rossiya davlati ham o'z elchilarini o'zbek xonliklariga yuboradi va ularga diplomatik vazifalardan tashqari mazkur o'lkalar to'g'risida ma'lumotlar to'plash vazifasi ham yuklatiladi. Shuni qayd etish kerakki, rus elchilarining ma'lumotlari ilmiy jihatdan hozirgacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan manbalar sirasiga kiradi. Ushbu sohadagi tashabbusni dastlab 1558-yilda Xitoydan Markaziy Osiyo orqali o'tadigan savdo yo'lini aniqlash maqsadida Moskvaga kelgan Angliya savdo kompaniyasining vakili Antoniy Jenkinson boshlab bergan edi. U Moskva hukumati yordamida Astraxan va Kaspiy dengizi orqali Mang'ishloq yarim oroliga chiqib, u yerdan savdo karvoni bilan Xiva hamda Buxoroga boradi. Qishni o'sha yerda o'tkazib, 1558-yilda Buxoro va Xivadan qo'shib yuborilgan elchilar bilan Moskvaga qaytib keladi. Antoniy Jenkinson o'z maqsadiga erishmagan bo'lsa-da, Rossiya va o'zbek xonliklari o'rtasida muntazam munosabatlarning

o'rnatishiga sababchi bo'ldi hamda ushbu o'lkalar to'g'risida ayrim ma'lumotlarni to'plashga muvaffaq bo'ldi. Mazkur munosabatlar ayniqsa, XVIII asrda kuchaydi. Pyotr I davridan boshlab Rossiya imperiyasi iqtisodiy jihatdan rivojlanib, xom ashyo manbai va sanoat mahsulotlari sotadigan yangi bozorlarga muhtoj bo'lib qoladi. Natijada, qo'shni mamlakatlar, shu jumladan, O'rta Osiyo xonliklariga ham diplomatik savdo vakillari yubora boshlaydi hamda ularni o'rganish bo'yicha maxsus ekspeditsiyalar tashkil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Markaziy Osiyo xalqlari etnografiyasiga oid ilmiy ahamiyatga ega materiallar to'plash davri keng ma'noda XIX asrdan boshlandi. Ushbu davrdagi ko'pgina yirik ekspeditsiyalarning asosiy bazasi hisoblangan Orenburg shahri bu sohada muhim rol o'ynagan edi. Orenburgning ilmiy markazga aylanishida uning birinchi gubernatori geograf N.K.Kirillov katta hissa qo'shdi. XIX asrning I yarmida N. N.Muravyov, A.F.Negri, N.V.Xanikov, G.I.Danilevskiy va boshqalar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar Markaziy Osiyo xalqlari etnografiyasini o'rganishdagi muhim ilmiy qadamlar edi. Ularning orasida 1819 -1870-yillarda Xiva xonligiga sayohat qilgan N.N.Muravyovning nomini alohida qayd etish kerak¹. U o'z taassurotlarini yozib, chop ettirgan edi. Ushbu tadqiqotchi qalamiga mansub "Esdalik" asarining ba'zi boblarida o'zbeklarning diniy e'tiqodlari, urf-odatlarini, kiyim-kechaklari va uy-ro'zg'or buyumlari hamda urug'-aymoqchilik an'alariga oid muhim etnologik ma'lumotlar keltirilgan. Rossiya bilan Markaziy Osiyo o'rtasidagi ko'p asrlik savdo va diplomatik munosabatlar, Sibir liniyasi hamda Orenburg guberniyasining tashkil etilishi, ushbu ikki o'lkani iqtisodiy jihatdan bir-biriga yaqinlashtirib, bosqinchilik siyosatiga o'tgan Rossiya imperiyasi hukumatining talonchilik niyatlarini amalga oshirishga shart-sharoit yaratgan edi. Natijada, XX asrning 60 - 80-yillarida Rossiya imperiyasi Buxoro va Xiva xonliklarining kattagina qismi hamda Qo'qon xonligini to'liq bosib olib, o'z mustamlakasiga aylantiradi. Tadqiqotchi V.P.Nalivkin o'lka etnografiyasini o'rganishda ko'zga yaqqol ko'zga tashlanadigan muhim tadqiqotlarni amalga oshirgan edi. Akademik V.V.Bartoldning ta'rificha, V. P. Nalivkin "Ruslar orasida o'zbeklarning tili, turmushini eng yaxshi bilgan olimdir". U rafiqasi bilan hammualliflikda 1886-yilda Qozon shahrida "Farg'onadagi o'troq mahalliy aholi xotin-qizlarining turmushi haqida ocherklar" nomli fundamental asarini nashr etgan edi.

NATIJA

Etnologik materiallarni keng ommaga yetkazish va ularni saqlab qolishda ilmiy jurnallar, statistik komitetlarning to'plamlari hamda "Туркестанские ведомости" gazetasining xizmatlarini alohida qayd etish o'rinli. Mazkur davriy nashrlarda A.A.Kun, A.A.Divaev, A.P.Ostroumov, N.S.Likoshin, N.Gabbin, A.N.Kushakevich, V.K.Razvadovskiy, A.A.Semyonov, N.A.Kirpichnikov, A.D.Kallyakov, F.Pospelov va boshqalarning asarlari tez-tez nashr etilgan. Markaziy Osiyo xalqlarining tarixi va etnografiyasini o'rganishda XIX asrda tashkil etilgan ilmiy jamiyatlarning roli nihoyatda kattadir. Rus Geografiya jamiyatining Turkiston bo'limi, tibbiyot, antropologiya va etnografiya havaskorlari jamiyatining Turkiston bo'limi, Turkiston arxeologiya havaskorlari to'garagi, Turkiston qishloq xo'jalik jamiyati, Xomutov to'garagi, O'rta Osiyo olimlar jamiyati, Rus texnika jamiyatining Turkiston bo'limi, sharqshunoslik jamiyatining Toshkent bo'limi, Turkiston tabiatshunoslari va vrachlari jamiyati, Turkiston

¹ Doniyorov.A.X, Bo'riyev.O.B, Ashirov. A.A. Markaziy osiyo xalqlari etnologiyasi. T.: - 2020. 43-45-betlar.

tibbiyot jamiyati hamda Farg'ona va Samarqand vrachlari jamiyatlari - ushbu muassasalar ko'lamining naqadar keng ekanligini ko'rsatib turibdi.

MUHOKAMA

1917-yildan so'ng tadqiqotchilar, shu jumladan, etnograflar orasida tabaqalanish boshlandi. Ya'ni, ayrimlari yangi tuzum tarafdori bo'lsa, boshqalari esa sovetlarga qarshi kuchlar tomoniga o'tib ketdi. Ammo, rus olimlari an'alarini davom ettirib, yosh etnograflarni tayyorlashda o'z hissalarini qo'shdilar. Masalan, etnograf va sharqshunoslardan N.G.Mallitskiy, M.S.Andreev, A.A.Semyonov hamda A.A.Divayevlar O'rta Osiyo Davlat universitetida qolib, o'z ilmiy ishlarini davom ettirdi. O'rta Osiyo Davlat universitetida o'zbeklar etnografiyasi bo'yicha maxsus kurs kiritilib, etnografiya fanining tashviqotchisi N.S.Likoshinning bu boradagi faoliyati diqqatga sazovor. Keyinchalik O'rta Osiyo Davlat universitetining maxsus fakultetiga aylangan Sharq instituti o'quv rejasida etnografiya faniga alohida e'tibor berilganligi tufayli sobiq talabalar orasidan yirik olimlar yetishib chiqdi. XX asrning 20-yillarida o'zbek xalqi etnogenezi va urug' qabilaviy tuzilishi, ijtimoiy hamda oilaviy turmush tarzi, xo'jaligi va boshqa masalalarga oid bir necha etnologik asarlar paydo bo'ldi. Ilk nashrlardan professor ye.D.Polivanov va etnograf L.P.Potapovlarning ishlari diqqatga sazovordir. G.Golser o'zbeklarning dehqonchilik xo'jaligi to'g'risida kitob chiqargan bo'lsa, F.Gavrilov, M.S.Andreev va A.N.Samoylovichlar esa hunarmandchilikka bag'ishlangan asarlarni yaratdi.

XULOSA

Shunday qilib, XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asming boshlarida o'zbeklar va Markaziy Osiyoning boshqa xalqlarini etnologik jihatdan o'rganishda muhim qadamlar tashlangan edi. Mustamlakachilik siyosatiga amal qilib kelgan fanning tor doiradagi ta'limoti va cheklangan imkoniyatlariga qaramay, o'sha davrdayoq Turkiston xalqlari tarixi va etnografiyasiga oid boy ma'lumotlar keyingi tadqiqotlar uchun muhim fundament vazifasini bajargan edi. Shunday bo'lsa-da, bugungi kunda Markaziy Osiyo xalqlari etnografiyasiga oid qator masalalar atroflicha o'rganilmagan, ayniqsa, o'zbek xalqi etnogenezi, moddiy va ma'naviy madaniyati bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar yetarli emas. Ushbu muammolarni mamlakatimiz va jahon etnografiya fanining qo'lga kiritgan so'nggi yutuqlariga asoslangan holda hal etish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «2022 — 2026 йилларга мўлжалланган янги ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон Фармони
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва жиноятчиликка қарши курашиш соҳасида ички ишлар органлари фаолиятини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 26.03.2021 йилдаги ПФ-6196-сонли фармони
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 20.01.2023 йилдаги “Ички ишлар органларини халқчил профессионал тузилмага айлантириш ва аҳоли билан янада яқин ҳамкорликда ишлашга йўналтириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-

10-сон қарори

4. United Nations crime analysis. <https://www.un.org/>

5. ИИВ маълумотлари. <https://iiv.uz/oz/opendata>

6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. https://ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati

7. Ўғирлик – катта гуноҳдир. <https://islom.uz>

8. Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекси. <https://lex.uz/docs/97664>

9. Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 30.04.1999 йилдаги 6-сон “Ўзгалар мулкани ўғрилик, талончилик ва босқинчилик билан талон-торож қилиш жиноят ишлари бўйича суд амалиёти тўғрисида” қарори

10. М.Рустамбаев. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодексига шарҳлар. Махсус қисм. - Тошкент: «Yuridik adabiyotlar publish», 2021. - 455 б

